



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI



VOL.3 № 3

2026

SALOMLASHISH FATIK NUTQIY AKTINING SEMANTIK TASNIFI

Akramova Dilnoza No‘monjonovna
Andijon davlat pedagogika instituti, o‘qituvchi

Annotatsiya

Maqolada fatik nutqiy aktlarning salomlashish turi haqida so‘z yuritilgan bo‘lib, uning semantik xususiyatlariga ko‘ra tasnifi muammosi haqida fikr yuritiladi. Shuningdek, salomlashish nutqiy aktining uch asosiy elementi haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: fatik nutqiy akt, muloqot, suhbatdosh, semantika, nutqiy vaziyat, element.

СЕМАНТИЧЕСКАЯ КЛАССИФИКАЦИЯ ФАТИЧЕСКОГО РЕЧЕВОГО АКТА ПРИВЕТСТВИЯ

Акрамова Дилноза Нумонджоновна
Андижанский государственный педагогический институт, преподаватель

Аннотация

В статье рассматривается тип фатических речевых актов — приветствие, а также анализируется проблема его классификации с точки зрения семантических особенностей. Кроме того, описываются три основных элемента речевого акта приветствия и их роль в процессе коммуникации. В работе анализируются коммуникативная ситуация, отношения между собеседниками и прагматические аспекты приветствия.

Ключевые слова: фатический речевой акт, коммуникация, собеседник, семантика, речевая ситуация, элемент.

SEMANTIC CLASSIFICATION OF THE PHATIC SPEECH ACT OF GREETING

Akramova Dilnoza No‘monjonovna
Andijan State Pedagogical Institute, Lecturer

Abstract

The article examines the greeting type of phatic speech acts and discusses the issue of their classification according to semantic characteristics. It also considers the three main elements of the greeting speech act and their role in the process of communication. The study analyzes the communicative situation, the relationship between interlocutors, and the pragmatic aspects of greetings.

Keywords: phatic speech act, communication, interlocutor, semantics, speech situation, element.

Zamonaviy ilm-fan taraqqiyoti jadal ildamlayotgan ayni bir paytda barcha sohalarida bo‘lgani kabi tilshunoslik sohasida ham muayyan o‘zgarishlar, yangiliklar kashf etilmoqdaki, ushbu yangiliklardan boxabar bo‘lib borish davr talabiga aylanmoqda.

Bizga yaxshi ma‘lumki, semantika sohasining asoschisi J.Ostin nutqiy harakatlarni yoki boshqacha qilib aytganda, nutqiy aktlarni bir necha turlarga bo‘lish kerakligi va ularning har biri muayyan xususiyatlarga ega ekanligi haqida gapiradi. Keyinchalik shogirdi J.Syorl tomonidan yanada boyitilgan J.Ostinning nazariyalari nutqiy harakatning ma‘lum bir maqsadni ko‘zda tutib amalga oshirilishiga e‘tibor qaratish lozimligini anglab yetishda muhim vazifa o‘taydi. Bundan ko‘rinib turibdiki, muayyan nutqiy vaziyatda ifoda etilgan xabar mazmunining qanday

kommunikativ maqsad bilan ro'yobga chiqishiga ko'ra bir nutqiy aktlarni bir nechta turlarga ajratish mumkin.

Ushbu maqolada biz, nutqiy aktlarning fatik turlariga xususan salomlashish nutqiy aktiga to'xtalib o'tamiz. Ushbu turdagi nutqiy aktlar insonlar o'rtasidagi o'zaro aloqalarni boshqarishga qaratilgan va ularning munosabatlarini yomonlashtirish, yaxshilash yoki saqlab qolish xususiyatiga ega. Biroq, u axborot almashishni o'z ichiga olmaydi. Salomlashish, ko'pincha ramziy ma'noda, insonlar o'rtasida aloqa o'rnatish va saqlashda muhim rol o'ynaydi hamda munosabatlarning belgisi bo'lib xizmat qiladi. Bundan tashqari, salomlashish orqali kelgusida bo'lib o'tadigan suhbatning kayfiyatini oldindan his etish imkoni ham yo'q emas. Ya'ni, so'zlovchining qanday salomlashishganiga qarab, uning kayfiyatini bilib olish mumkin va tabiiyki, bunday kayfiyat tinglovchiga ham ta'sir etishi tayin.

R. Jakobsonning fikriga ko'ra fatik nutqiy aktlar asosan muloqot qiluvchilar: xabarni jo'natuvchi (so'zlovchi) va qabul qiluvchi (eshituvchi) o'rtasidagi aloqa o'rnatish maqsadida foydalaniladi.

P. Braun va S. Levinsonning ta'rifiga asosan esa, salomlashish yaqinlashish strategiyasining asosiy harakati hisoblanadi, bu suhbatdoshlar o'rtasida aloqa o'rnatishda, birinchi taassurotni yaratishda muhim rol o'ynaydi va ko'pincha muloqotning keyingi yo'nalishini oldindan belgilab beradi.

"Xushmuomalalik og'zaki muloqotning dastlabki bosqichida, ma'ruzachi va qabul qiluvchi o'rtasida aloqa o'rnatilganda aniq namoyon bo'ladi. Aksariyat hollarda, muloqotning dastlabki bosqichi so'zlovchining kommunikativ va ijtimoiy maqsadlariga erishishini oldindan belgilab beradi. Xushmuomalalik modelini aks ettiruvchi stereotipik va an'anaviy formulalar yordamida tegishli aloqa o'rnatish shaxslararo muloqotning ajralmas qismi hisoblanadi. Aksincha salomlashmay boshlangan suhbatlar esa ikki xil talqin etilishi mumkin. Birinchi holatda suhbatdoshlar allaqachon suhbatni boshlashgan hamda ma'lum muddaatdan so'ng uni yana davom ettirishmoqda. Ikkinchi holatda esa so'zlovchining kayfiyati yo'qligi yoki jaxli chiqqanligini anglab olish ham istisno emas.

N. I. Formanovskaya shunday deb yozadi: "Salomlashish - bu ba'zan notanish odamga nisbatan xayrixohlik va hurmat, xushmuomalalik ko'rsatish demakdir". Ushbu ta'rif salomlashishning ilk munosabatlar o'rnatilganda qanchalik ahamiyatli ekanini ifodalaydi. Do'stona ohangni yaratish uchun esa turli lingvistik vositalardan foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

V.V.Leontyev ham salomlashishning muhim roli (shu jumladan ingliz tilida ham) haqida gapiradi: "Salomlashish nafaqat og'zaki muloqot taxmin qilinadigan vaziyatlarda mumkin bo'lgan adovatni yo'q qiladi, balki salomlashish muloqot qiluvchilar o'rtasidagi ijtimoiy birdamlik belgisi bo'lib xizmat qiladi va ularga bir-biriga qanday ijtimoiy rol berishlarini ko'rsatadi".

Yuqoridagi fikrlarning barchasini inobarga olgan holda aytishimiz mumkinki, salomlashish nutqiy akti tasniflashning turli yondashuvlaridan kelib chiqib, salomlashishning o'ziga xos xususiyatlari - bu tinglovchiga bo'lgan munosabat, ma'lum bir vaziyat tomonidan boshlangan xushmuomalalikning ifodasi (salomlashish ijobiy xushmuomalalikni o'zida mujassam etadi) deb e'tirof etilishi mumkin.

Ingliz tilida salomlashish nuqiy aktida odatda uchta elementni ajratish mumkin:

1. Salomlashishning o'zi ("Hello"/"Hi"/ "Good morning" va boshqalar);
"Hello, Harry!" she said. "Er- my name's Barney," said Harry. (Harry Potter and the Deathly Hallows, Chapter 8 by J.K.Rowling, p 140.)
2. Ayni kimga murojaat qilinayotganlikni e'tirof etish orqali ("Mr.Peter" / "Dear Lora" / "Dr.David" va hkz.)
"Dear Sirius,
Thanks for your letter. I was really pleased to hear from you..." (The Scar, Chapter 2 by

J.K.Rowling, p 24.)

3. Suhbatboshlar o'rtasidagi munosabatlar turiga qarab kichik suhbat almashish (ob-havo haqida fikr almashish/ suhbatdoshining kayfiyatini, sog'ligini so'rash). Aniqlangan uchta komponentdan foydalanish ixtiyoriy bo'lib, salomlashishning o'zi eng asosiysi hisoblanadi.

Hermione Granger: "Harry? Is that you?... How are you feeling? Okay?..." (Harry Potter and the Goblet of Fire, Chapter 20 by J.K.Rowling, p 143.)

Bundan tashqari, salomlashish rasmiy va norasmiyga bo'linishi mumkin (masalan, "Good afternoon sir"/ "Good day madam!" yoki: "Hello sir"/ "Hi ma'am"). Rasmiy salomlashish odatda rasmiy vaziyatlarda, hamkasblar bilan, ijtimoiy mavqe jihatidan teng bo'lmagan suhbatdoshlar orasida uchraydi. Ular notanish odamlar orasida ham qo'llanilishi mumkin albatta.

Qabul qiluvchilarning maqomi ustun bo'lgan vaziyatda, biz maqtovlarning tez-tez ishlatilishi haqida ham gapirishimiz mumkin. Murojaat qilishda (ism bilan (eng ko'p) yoki umumiy maqomi ifodalovchi so'zlar bilan, (masalan, "Mister"/ "Missis"/ "Miss"/ "Madam") turli maqomdagi munosabatlarda iltifotlardan foydalanish mumkin.

Har bir vaziyatda suhbatni boshlashning o'ziga xos shakllari mavjud. Salom aslida qo'shimcha muloqotni talab qilmaydigan neytral suhbatdir.

Salomlashish har qanday muloqotning ilk qadami bo'libgina qolmay, odob-axloq etiket jihatidan maqbul hisoblangan kichik suhbat hisoblanadi. Semantik jihatdan muayyan xabar yetkazishni ko'zda tutmaydigan ushbu nutq formulasi so'zlovchi qabul qiluvchini va uning ahamiyatini sezishini va tan olishini ko'rsatadi. Bu fatik savolga javob ijobiy, neytral yoki salbiy bo'lishi mumkin. Albatta bunda intonatsiya, ovoz tempi ham ahamiyatlidir. Yana aytish mumkini, insonning yuz ifodasi (jilmayib yoki qovoni solib) ham so'zlovchining niyatini aniqlashga yordam beradi.

Biz yuqorida aytib o'tgan salomlashish nutqiy aktining ikkinchi elementida ko'rsatilgan "murojaat shakllari" quyidagilarni o'z ichiga oladi:

– to'g'ridan-to'g'ri ismlarni tilga olish ("Mr.Johnson/ Mrs. Jackson/ Ms.May):

"Dear Mr. Potter,

We are pleased to inform you that you have been accepted at Hogwarts School of Witchcraft and Wizardry." (Harry Potter and the Philosopher's Stone, Chapter 4 by J.K.Rowling, p 31.)

- turli darajalar va unvonlarni ta'kidlash orqali: ("Doctor, professor"):

"Professor Dumbledore, sir," said Harry. (Dragon Alley, Chapter 5 by J.K.Rowling, p

82.)

– qarindoshlik darajalari yordamida (Dad, mom, aunt Polly, uncle Sam, granny...);

"Uncle Vernon, please!" said Harry, trying to explain. (The Keeper of the Keys, Chapter 4 by J.K.Rowling, p 30.)

- bolalar va yaqin do'stlarga mehrli, kichraytiruvchi murojaat shakllari bilan (honey, dear, sweetie, my friend, my love);

"Take care, my friend," said Dumbledore." (The Lost Prophecy, Chapter 37 by J.K.Rowling, p 840.)

– tinglovchiga atab qo'yilgan taxalluslar va qisqartmalar (bunny, little one, kitty, Snoop dog).

"Don't worry, little one, I'll see you're looked after." (Harry Potter and the Philosopher's Stone, Chapter 4 by J.K.Rowling, p 86.)

Murojaat shakllaridan foydalanish bir qator ekstralingvistik omillarga bog'liq: kommunikantlar o'rtasidagi munosabatlar, yosh, jins, ma'lumot, ijtimoiy mavqe va boshqalar. Aynan shunday xususiyatlar so'zlovchilar o'rtasidag kechadigan suhbatning qay tarzda va ohangda boshlanishini belgilab beradi hamda so'zlovchi muloqotga qo'yilgan ilk qadamini

shunday omillarni hisobga olgan holda boshlaydi.

Semantik jihatdan bo'sh va ko'pincha ma'lumotsiz bo'lgan fatik muloqot elementlari, shunga qaramay, muloqot qiluvchilarning maqom rollari, munosabatlari va ijtimoiy xususiyatlarini aniqlashda juda muhim ahamiyatga ega.

XULOSA.

Ingliz tilidagi salomlashish nutqiy akti bir nechta semantik xususiyatlarni o'z ichiga olgan holda, bir nechta turlarga bo'linadi. Salomlashish nutqiy akti avvalo xushmuomalalik nuqtai nazaridan majburiy hisoblangan kichik suhbat bo'lib, suhbatdoshlarning muloqot qilishga qay darajada hayrixoh ekanliklarini anglatadi. Tarkibiy qismlarga qarab, salomlashish ijtimoiy mavqe va masofani ko'rsatadi. Ingliz tilidagi salomlashishlar ko'pincha uchta elementdan iborat: salomlashishning o'zi, murojaat va "kichik suhbat" elementlari.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Чистанова С.С. Концепт иллокуции в теории речевых актов Джона Остина //Гуманитарный вектор, 2017. – Т. 12. – №. 3. – С. 85-90.
2. Jakobson R. The speech event and the functions of language //On language. – 1990. – С. 69-79.
3. Brown P. Politeness: Some universals in language usage. – Cambridge university press, 1987. – Т. 4.
4. Формановская Н.И. Благопожелание как концепт в основе речевого этикета //Речевое общение: специализированный вестник. – 2011. – №. 12 (20). – С. 69.
5. Larina T.V. Xushmuomalalik kategoriyasi va muloqot uslubi: ingliz va rus lingvomadaniy an'alarini taqqoslash. - M.: Qadimgi Rossiyaning qo'lyozma yodgorliklari, 2009. 512 b.
6. Leontyev V.V. Maqtoqlar salomlashish va minnatdorchilik formulalarining tarkibiy qismlari sifatida (ingliz tili asosida) // Axborot byulleteni. Volgograd davlat universiteti. 2-seriya: Tilshunoslik. 2006. 132-bet. 174 3-bo'lim. Til – Siyosat – Madaniyat 137.
7. Majidova Z.A. The analysis of politeness strategies in directive speech acts // Экономика и социум. 2023. №1-2 (104). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/the-analysis-of-politeness-strategies-in-directive-speech-acts> (дата обращения: 05.03.2026).